



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2023**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2023

UDK: 818.213

BBK: 84.61

B- 29

Butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug' maqsadimiz – Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratamiz.

Yangi O'zbekiston – bu, avvalo, yangi iqtisodiy munosabatlar, yangi iqtisodiy dunyoqarash demakdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev

Все свои силы и потенциал мы направим на достижение нашей общей великой цели - построение нового Узбекистана. Новый Узбекистан – это, прежде всего, новые экономические отношения, новое экономическое мировоззрение.

Президент Республики Узбекистан Шавкат
Мирзиёев

© Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti

© «KLASSIC PRINT» nashriyoti

MUNDARIJA

Мамаюсупов О. М. Маҳаллий бюджетлар қўшимча манбаларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш йўллари.....	6
Муфтайдинов Б. Қ. Корхоналар молиявий барқарорлигини таҳлил қилишнинг айрим йўналишлари.....	15
Ismatov I. M. Organizational and legal mechanisms for improving the labor migration system of.....	21
Амбарцумян А. А. Энергетика Узбекистана: состояние и перспективы.....	27
Мирзаев А. Т. Олий таълим муассасаларида битирувчилар рақобатбардошлиги шаклланишига таъсир этувчи омилларни баҳолаш.....	42
Chilmatova D. Sugʻurta faoliyatining oʻziga xos jihatlari va sugʻurta tashkilotlari uchun alohida buxgalteriya hisobini yuritish tartibi.....	57
Kamilov B. U. Oʻzbekistonda qayta sugʻurtalash bozori va uni davlat tomonidan tartibga solinishi.....	66
Ахмадалиев Д. Ўзбекистонда юридик шахсларнинг сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиғининг аҳамияти: барқарорлик кафолатлари ва тежамкорликни рағбатлантириш.....	75
Jumayev N. X. Umarov A. A. Yangi bank xizmatlar bozorini oʻrganishda marketing jarayonlarini olib borish yoʻllari va rivojlanishga taʼsir etuvchi omillar.....	83
Won II. H. Essence and prerequisites for the development of social entrepreneurship.....	94
Жумақулов З.И. Жўраева Н.Қ. Саноат корхоналарининг хомашё таъминотини амалга оширишнинг замонавий концепциялари.....	99
Абдуллаева Х.Н. Развитие лидерского потенциала организации на основе комплексной оценки профессионально-личностных характеристик руководителей.....	108
Жумабаева Д. Т. Агротуризм соҳасида давлат сиёсатини амалга оширишнинг устувор йўналишлари, воситалари ва усуллари.....	115
Xolmoʻminov X. O. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat hokimiyati organlarining roli.....	125
Абдуллоев А.Ж. Агрокластер фаолиятини ташкил этиш ва уни бошқариш моделларининг қиёсий таҳлили.....	132
Романова А. В. Сатимова Д. Н. К вопросу об экономическом обосновании использования высокотемпературных глин в узбекском ремесленном керамическом производстве.....	139

УДК: 336.719

**YANGI BANK XIZMATLAR BOZORINI O'RGANISHDA
MARKETING JARAYONLARINI OLIB BORISH YO'LLARI VA
RIVOJLANISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

**СПОСОБЫ ПРОВЕДЕНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ПРОЦЕССОВ С
ЦЕЛЬЮ ИЗУЧЕНИЯ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ
РЫНКА НОВЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ**

**METHODS OF CONDUCTING MARKETING PROCESSES IN
ORDER TO STUDY THE FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT
OF THE MARKET OF NEW BANKING SERVICES**

Jumayev Nodir Xosiyatovich – i.f.d., professor,
O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya akademiyasi.
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich – O'zb. Resp.
Bank - Moliya akademiyasi mustaqil -izlanuvchisi,
O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya akademiyasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tijorat banklarida yangi innovatsion raqamli texnologiyalarni qo'llash, innovatsion faoliyatni tashkil etishdagi nazariy asoslari bilan bog'liq holatlari ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan aholiga qulay bo'lgan to'lov xizmatlarini ishlab chiqish va yanada rivojlantirish.

Kalit so'zlar: tijorat banki, innovatsion xizmat turlari, axborot texnologiyalari, raqamli innovatsion texnologiyalar, biznes model, sun'iy intellekt, aqlli bank ofisi.

В статье рассматриваются вопросы использования новых инновационных цифровых технологий в коммерческих банках, а также теоретические основы организации инновационной деятельности. Кроме того, развитие и дальнейшее развитие коммерческих банков платежных услуг, удобных для населения.

Ключевые слова: коммерческий банк, виды инновационных услуг, информационные технологии, инновационные цифровые технологии, бизнес-модель, искусственный интеллект, умный банковский офис.

The article discusses the use of new innovative digital technologies in commercial banks, as well as the theoretical foundations of the organization of

innovative activities. In addition, the development and further development of commercial banks of payment services convenient for the population.

Key words: commercial bank, types of innovative services, information technology, innovative digital technologies, business model, artificial intelligence, smart bank office.

Hozirgi kunda tijorat banklarini innovatsion faoliyatini yanada rivojlantirib borishning eng asosiy maqsadi shuki, milliy chakana to'lovlar tizimini yaratish va rivojlantirishdan iborat bo'lib, tijorat banklari tomonidan aholiga qulay bo'lgan yangi to'lov xizmatlarini ishlab chiqish hamda naqd pulsiz to'lovlar jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, rivojlantirish hamda ilgari surish; bevosita muloqotsiz va mobil texnologiyalarni, eng avvalo transport, kommunal, savdo, umumiy ovqatlanish ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish, sohalarida qo'llanilishini tadbiq etish, ayniqsa, xalqaro to'lov tizimlari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash banklarning umumiy innovatsion va raqobat strategiya nuqtayi nazaridan juda muhimdir. Chunki innovatsiya - bu banklarning raqobatbardoshlik darajasini saqlab qoladi yoki uni raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi. Lekin bugungi kunda tijorat banklari o'zini raqamli texnologiyalar asosida raqamli ekotizimni yaratish innovatsion rivojlanish strategiyasi sifatida to'laqonli shakllanib bo'lgani yo'q. Tijorat banki faoliyatiga innovatsion texnologiyalarini qanchalik ta'sir etish mohiyatini ochib berish eng muhim hisoblanadi.

Yagona tizimni tashkil qilinish jarayonlarini xorijiy davlatlarda qanday amalga oshirilganligi yuzasidan xorijiy mutaxassislar tomonidan olib borilgan izlanishlarigato'xtaladigan bo'lsak:

Mamedov Taniel tomonidan olib borilgan tadqiqot usullaridan biri bu eng yuqori darajada xizmat turlarini ko'rsatuvchi yetakchi mamlakatlar tajribasidan misollar keltirgan holda ushbu xizmatlarning rivojlanish dinamikasini tarixiy va sifatli iqtisodiy tahlilini olib borgan[1].

Ta'kidlab o'tilgan islohotlarni amalga oshirish jarayonida mutaxassislar tomonidan maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, bundan asosiy ko'zlangan maqsad shu ediki, dastlab:

- Davlat xizmatlari sifatini oshirish;
- Barcha qulayliklarni iste'molchilar uchun yaratish;
- Jamoat joylarida xizmatlar sifatini ta'minlash.

Bundan tashqari, xizmatlarni iste'molchilarga yaqinlashtirish maqsadida maxsus davlat xizmatlari markazlari tashkil etilishi moliya va bank tizimlari bilan uzviy bog'liqligi samarasini Buyuk Britaniya misolida o'rganib chiqilganda, tizimli boshqaruvni modernizatsiya qilish strategiyasi davlat xizmatlari sifatini oshirish

chora-tadbirlarini o'z ichiga olgan tizim hisoblangan bo'lib, ushbu tizimni yanada takomillashtirishga qaratilgan umumiy davlat siyosatining muhim bo'g'inlaridan biri davlat boshqaruvi va aholi bilan aloqalarni mustahkamlash eng asosiy maqsad etib belgilab olingan va bu mamlakatning ijro hokimiyatini modernizatsiya qilish va oshirish tajribasi, davlat xizmatlari sifati va ulardan foydalanish imkoniyatining keng qo'llanilishi yuzasidan boshqa mamlakatlarda ham keng tarqalganligini ta'kidlangan. Ya'ni: Belgiya, Fransiya, Malayziya, Portugaliya, Kanada, Avstraliya va boshqa mamlakatlar Buyuk Britaniya modeliga asoslangan yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lumotlari bank, moliya va davlat xizmatlar markazi o'rtasidagi axborot almashuvidagi to'siqlar mavjud emasligi natijasida tizimning rivojlanishi va yanada takomillashishiga olib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 12-dekabr sanasidagi PF-5278-sonli "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni imzolangan. Shunga ko'ra davlat xizmatlar markazlari respublikamizning barcha hududlariga kirib borishini ta'minlash va hududlarda istiqomat qiluvchi aholining davlat xizmatlariga bo'lgan talabini o'rganish hamda vakolatli davlat organ va tashkilotlari tomonidan davlat xizmatlari ko'rsatilishida undiriladigan to'lovlarning qulayligi va banklar bilan o'zaro uzviy bog'liqligini va maqbulligini doimiy tahlil qilib borilishi belgilab berilgan.

Bugungi kunda aholi va tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlar va preferensiyalar to'g'risida, shu jumladan, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar olish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish, shuningdek, tegishli hujjatlar namunalarini taqdim etish to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish hamda kerakli hujjatlarni tayyorlash jarayonini tezlashtirish hisobiga aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat xizmatlaridan foydalanish uchun sarflanadigan vaqt birligini minimallashtirish va moliyaviy xarajatlarini kamaytirish hamda davlat xizmatlariga taqdim etilgan ariza va murojaatlarning statistik ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash sifati yuzasidan doimiy monitoringlar olib borish va nazorat qilish vazifalari belgilab berilgan; Bundan tashqari, ushbu farmonda turli tahlillar murojaatlardagi masalalar, xorijiy tajriba implementatsiyasi, davlat xizmatlari markazlarida tashkil etiladigan g'oyalar akseleratorlaridan ma'lumotlar asosida yangi takliflar va normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqish, ushbu tizimni yanada takomillashtirish va amaliyotga qo'llashni takidlab o'tgan.

Yuqoridagi barcha belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash va yangi innavatsion tizimlarni yaratish va takliflarni kiritish maqsadida «Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish»da bir qator ilmiy izlanish va tahliliy o'rganishlar olib borildi. Ushbu tizimni Bank tizimi bilan uzviy

bog'lash hamkorlik asosida ish faoliyatini olib borish yangi innavatsion tizimni yaratish maqsadga muvofiq deya olamiz.


1-jadval

Ko'rsatilgan xizmallar[6]

Xizmat nomi (1-jadval)	Barcha arizalar	Tugallanganlar
Kadastr pasportini shakllantirish	38 368	26 552
Ruhiiy kasalliklar bo'yicha dispanser hisobida turishi yoki turmasligi to'g'risida ma'lumotnoma olish	32 027	31 519
Narkologiya bo'yicha dispanser hisobida turishi yoki turmasligi to'g'risida ma'lumotnoma olish	31 249	30 685
Sudlanmaganlik (yoki sudlanganlik) to'g'risida ma'lumotnomalarni olish uchun ariza yuborish	25 382	24 320
Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishga ariza yuborish	23 259	15 844
Yaroqsiz holatga kelgan yoki yo'qotilgan mehnat daftarchasidagi yozuvlarni tasdiqlash	8 417	7 895
Nikoh qayd etilganligi, nikohda turmasligi yoki nikohdan ajralganligi to'g'risidagi ma'lumotnomani olish	7 528	6 869
Nikoh qayd etilganligi, nikohda turmasligi yoki nikohdan ajralganligi to'g'risidagi ma'lumotnomani olish	7 528	6 869
Qurilish-montaj ishlari tugallangan obyektidan foydalanish uchun ruxsatnoma berish va kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish	7 198	4 411
20 kVt dan yuqori bo'lmagan elektr tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni olish	4 638	4 251

Bundan asosiy maqsad shuki, DXMga murojaat qiluvchi har bir fuqaro yoki faoliyat yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar almashuvi, banklar tizimi bilan uzviy bog'lanishi axborot va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlovchi yagona tizimni tashkil qilinishi, Bank va DXMdagi ma'lumotlar almashuvidagi to'siqlarni olib tashlash, Davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi innovatsion yechimi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish hamda davlat organlari va banklardag ma'lumotlar bazalarini idoralararo elektron hamkorlik yagona tizimiga integratsiya qilinishi natijasida, "davlat-fuqaro" munosabatlarida qulaylik yaratish va shaffoflikni ta'minlash, aholining hayot sifati, investitsiya iqlimi, ishchanlik muhitini yaxshilash natijasida tijorat banklarining faoliyatini rivojlantirishga olib keladi.

1-diagrammada tahlil natijasiga nazar soladigan bo'lsak, arizalar bo'yicha 10 oy yakuniga ko'ra kadastr ma'lumotlarini shakllantirishdagi eng ko'p murojaatchilar 21 % tashkil qilmoqda. Keyingi o'rinda ruhiy kasalliklar to'g'risidagi ma'lumotlar olish 17,3% tashkil qilsa, narkologiya kasalliklar ro'yxatida mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risidagi murojaatchilar 17%ni tashkil etmoqda va boshqa kursatkichlar esa 17 % quyi darajani tashkil qilib eng kam murojaatchilar nikohni qayd etishdagi ko'rsatkich umumiy ko'rsatkichning 2% ni tashkil etmoqda.



1-rasm. Xizmat soni va uning yakunlanishi ko'rsatkichlari bo'yicha[6]

Ushbu murojaatchilar xizmat turlaridan foydalanishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan yagona ta'rifikatsiya xizmat haqqi uchun undirilishi lozim bo'lgan ta'rif summasi bo'yicha tahlil qilinadigan bo'lsak, quyidagi (2-jadval) tahlil natijalari o'z aksini topadi.


2-jadvalning tahlil natijasiga ko'ra shuni ko'rishimiz mumkinki, 10 oy yakuniga ko'ra jami 220 609 003 so'm miqdorida naqd va naqd pulsiz to'lovlar tijorat banklari tomonidan qabul qilinib olingan bo'lib ushbu to'lovlarni amalga oshirishdagi vaqt birligini, ya'ni vaqtni tejash 24/7 tizimida operatsiyalarning tezkor ravishda amalga oshishi va to'lov uchun bank kassalarida vaqtlarini ko'plab navbatlarda kutib turish va to'lovlarni to'lashga hojat qolmasligi natijasida banklarning operatsion harajatlarning keskin kamayishi va daromadlik darajasi ortishiga olib keladi. Shuni aytishimiz joizki, zamonaviy bank xizmatlarini yaratishda yuqori natijalarga erishish uchun rivojlangan mamlakatlardagi davlat xizmatlari tarmoqlaridan foydalanib, o'zimizning milliy eko tizimni yaratish va rivojlantirish uchun Bank –Moliya, DXM tizimlaridagi ma'lumotlar bazalarini umumiyashtirilishi natijasida o'nlab yangi bank xizmat turlarini joriy etishiga olib kelishini ta'kidlab o'tamiz. Bunga misol tariqasida, DXM hamda Hamkorbank tizimidagi bir marotabalik hamda boshqa turdagi to'lovlarni amalga oshirish jarayonlari to'g'risidagi tahlilni olib borilishi jarayonida mijozlarning soni hamda to'lovlar summasi bo'yicha taqqoslash va solishtirish o'tkazildi va buning natijasida shu ma'lum bo'ldiki, mijozlar to'lov xizmatlari uchun bir necha bank muassasalariga murojaat qilishiga to'g'ri kelishi va bu mijozlarga noqulayliklar tug'dirilishiga olib

kelmoqda, ya'ni mijozlar DXMga tashrif buyurishi jarayonida bank amaliyotlarini bajara olish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq deya olamiz va quyidagi tahlil jarayonlari bunga asos bo'la oladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

2-jadval

Tijorat banklari tomonidan qabul qilinib olingan naqd va naqd pulsiz to'lovlar [6]

Xizmat nomi	Barcha tugallangan arizalar	Xizmat narxi my.gov.uz bo'yicha	xizmat narxi (ming. so'm)	10 oy mobaynida (ming. so'm)
Kadastr pasportini shakllantirish	26 552	17,25 BHM	5 175	137 406 600
Ruhiy kasalliklar bo'yicha dispanser hisobida turishi yoki turmasligi to'g'risida ma'lumotnoma olish	31 519	0.018 BHM	5,4	170 203
Narkologiya bo'yicha dispanser hisobida turishi yoki turmasligi to'g'risida ma'lumotnoma olish	30 685	0.018 BHM	5, 4	165 699
Sudlanmaganlik (yoki sudlanganlik) to'g'risida ma'lumotnomalarni olish uchun ariza yuborish	24 320	0.027 BHM	8,1	196 992
Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishga ariza yuborish	15 844	17,25 BHM	5 175	81 992 700
Yaroqsiz holatga kelgan yoki yo'qotilgan mehnat daftarchasidagi yozuvlarni tasdiqlash	7 895	0.08 BHM	24	189 480
Nikoh qayd etilganligi, nikohda turmasligi yoki nikohdan ajralganligi to'g'risidagi ma'lumotnomani olish	6 869	0.045 BHM	13, 5	92 732
Nikoh qayd etilganligi, nikohda turmasligi yoki nikohdan ajralganligi to'g'risidagi ma'lumotnomani olish	6 869	0.045 BHM	13,5	92 732
Qurilish-montaj ishlari tugallangan ob'ektdan foydalanish uchun ruxsatnoma berish va kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish	4 411	0.27 BHM	81.0	357 291
20 kVt dan yuqori bo'lmagan elektr tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni olish	4 251	0.09 BHM	27.0	114 777
Jami	159 215			220 609 003




**2-rasm. Xizmatlar soni bo'yicha ko'rsatkichlar
(ATB «Hamkorbank» misolida) [7]**

Ushbu diagrammada xizmatlar soni bo'yicha ATB "Hamkorbank" filiallariga tashrif buyuruvchi mijozlar soni aks ettirilgan.



3-rasm. Davlat xizmatlar mahsuloti xizmatlar soni[8]


Shuni aytish joizki, 3-rasmda DXMga tashrif buyuruvchi mijozlar soni bo'yicha aks ettirilgan. Yuqoridagi (2-3- rasmlarda) berilgan ko'rsatkichlarda DXM hamda Hamkorbank tizimlariga tashrif buyuruvchi mijozlarning soni aks etganligi ko'rsatilmoqda.



4-rasm. Xizmatlar soni bo'yicha ko'rsatkichlar (Aksioner tijorat bank Hamkorbank misolida)[6]

Yoqoridagi 4 - rasmda esa eng ko'p foydalanilayotgan xizmat turlarining o'ntaligi soni buyicha ma'lumotlar yig'indisifatida tahlil uchun foydalanildi.


Quyidagi ushbu 5 - rasm kursatkichlarida esa DXM hamda Hamkorbank tizimlariga tashrif buyuruvchi mijozlarning qaysi turdagi eng ko'p foydalanayotgan xizmat turlari uchun amalga oshirgan to'lov summalari hqidagi ma'lumotlar yig'indisi tahlili olib borildi.



5-rasm. DXM bo'yicha xizmatlar summasidagi ko'rsatkichlar [8]

Demak, yuqoridagi 6-rasmda barcha olib borilgan tahlil natijalari aks etgan bo'lib, yakuniy qismida biz shuni ayta olamizki, DXM ni 10 oylik umumiy soni bo'yicha 159 220 dan iborat mijozlar tashrif buyurgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Hamkorbank tizimida 39 853 tani tashkil qilmoqda, ushbu ko'rsatkichlarning summa hisobidagi ma'lumotlari solishtirilganda DXMda 10 oylik yakuni bo'yicha 220 609

003 ni tashkil qilsa, Hamkorbank tizimida esa ushbu ko‘rsatkich 186 068.8 ni tashkil qilib, shundan boshqa to‘lovlar summasi 48 314 .9 ya’ni DXMni atiga 21.8 % dagi xizmat turlari uchun to‘lovlarni amalga oshira olganligi ma’lum bo‘ldi.



6 -rasm. Hamkorbank hamda DXM bo'yicha ko'rsatilgan jami xizmatlar soni va summasi[7]

Umumiy xulosa qilib aytilganda, Hamkorbank tomonidan qolgan 78.2 % miqdoridagi mijozlarni qamrab olish imkoniyati mavjud hamda buning natijasida 100 dan ortiq yangi xizmat turlarini joriy etish imkoniyati yaratiladi deya olamiz.[2] Har qanday mamlakatning zamonaviy iqtisodiy faoliyatini bank muassasalarisiz tasavvur qilish qiyin. Hozirgi kunda hisob-kitob va kassa operatsiyalarini tashkil etishda naqd va naqd pulsiz hisob-kitoblar, Rossiyadagi milliy to‘lov tizimi, shuningdek, kassa operatsiyalarini, banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirishni tashkil etishda masofaviy bank xizmatlarining o‘rni eng samarali instrument hisoblanmoqda.

Jahon bank amaliyotida bank qurilishining har xil turlari ma’lum. Tarixan bank tizimi sifatida vujudga kelgan va rivojlangan butun mamlakat bo‘ylab faoliyat yurituvchi yagona bankdan iborat tizim. Odatda, bunday banklar ko‘plab filiallariga ega bo‘lib, bu turdagi banklar yuridik va jismoniy shaxslarga bir xil turdagi bank operatsiyalarini amalga oshiradigan tizim sifatida tasniflanadi. iqtisodiy boshqaruvi, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bozor munosabatlari sharoitida eng istiqbolli modeli ikki bosqichli bank tizimi hisoblanib, ya’ni bu bir nechta birliklardan iborat va har biri o‘zining alohida rolini bajaradi:

- 1-darajali mamlakat milliy tizimi bo‘lib, u maxsus imkoniyatlarga ega bank faoliyatini tashkil etishdagi vakolatlariga ega bo‘lgan tijorat banklaridir;
- 2-darajali – bank sektori (tijorat banklari bevosita bozor ishtirokchilari uchun barcha operatsiyalarni amalga oshiradi. Bank tizimining shaffofligi (ingliz tilidan

transparent), unga muvofiq bank tizimidan foydalanish jarayonlarida mijozlarning ma'lumotlar bazasini tashkil etishda qadriyatlar, mijozlar va boshqa kontragentlar uchun tushunarli bo'lishi hamda hech kanday to'siq bo'lmasligi lozim [3].

Bankning asosiy mohiyati bank bir nuqtada xizmatlarni bajarib, ba'zi bank operatsiyalarini bajarishda mijoz huquqiga ega cheklangan miqdordagi xizmatlardangina foydalanishini ko'rib chiqish tavsiya etiladi, shu jumladan, xizmatlarning xilma-xilligini namoyon ettiruvchi o'ziga xos xususiyatlarini talab qiladi va uni boshqa iqtisodiyatlardan ajratib turadigan muassasa hisoblanib, muayyan korxona sifatida mahsulot ishlab chiqaradi, boshqa sohalardan sezilarli darajada farq qiladi va ushbu ishlab chiqarilgan mahsulotlar birinchi navbatda pul xarakteriga ega xizmatlar tamoyillari deb tushunish kerak[4].



xizmat yaratish amal qiladilar:

Mijozlardan doimiy so'rovnomalar olib borishga yo'naltirish natijasida mijozlarning talab va istagini shakllantirishga, uning daromadlarini va faoliyatini aniqlashga imkon yaratadi;

- Bank va mijozlarning o'zaro manfaatdorligi; bunda mijoz o'z manfaatlari ustunligini anglab yetishi kerak.

- Bank faoliyatini boshqarishda zamonaviy aloqa tizimlarini yaratish. Bu esa tez va sifatli xizmat turlaridan foydalanuvchi mijozlar soni ortib borishiga olib keladi.

Yangi bank xizmat turlarini yaratish jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qiladilar:

- Mijozlardan doimiy so'rovnomalar olib borishga yo'naltirish natijasida mijozlarning talab va istagini shakllantirishga, uning daromadlarini va faoliyatini aniqlashga imkon yaratadi;

- Bank va mijozlarning o'zaro manfaatdorligi; bunda mijoz o'z manfaatlari ustunligini anglab yetishi kerak.

- Bank faoliyatini boshqarishda zamonaviy aloqa tizimlarini yaratish. Bu esa tez va sifatli xizmat turlaridan foydalanuvchi mijozlar soni ortib borishiga olib keladi.

Shu asnoda, yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha jarayonlarni amalga oshirishda Ko'p funksiyali NCR Smart filial terminali asosiy bankomat konsepsiyasi asosida qurilgan, qo'shimcha funksiyalar bilan kengaytirilgan bo'lib, "yon yordamchi modullar" ga joylashtirilgan uskunalar yordamida ikkala tomonga o'rnatilgan. NCR Smart filiali o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish yoki ixtisoslashtirilgan planshetlar bilan jihozlangan filial xodimlari tomonidan xizmat ko'rsatish (bank soatlarida) yoki video konsultatsiya (24x7) orqali masofadan xizmat ko'rsatish uchun cheksiz xizmatlarni taqdim yetish uchun mo'ljallangan. NCR Smart bankomatini DXM ga joylashtirilishi natijasida biz ko'zlangan maqsadimizga erishimiz aniqligini ko'rsata olamiz (4-rasm).

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, har qanday bank faoliyatini olib borishda mijozlarning manfaatlari ustunligini ta'minlash lozim, ya'ni mijozga qulay, tez va sifatli, qolaversa, xizmat turlarini bajarish jarayonida chegara va to'siqlar bo'lmasligi natijasida banklarning samaradorligi hamda daromadlilik ortib borishiga olib keladi desak, mubolag'a bulmaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Мамедов Таризэл Опыт предоставления государственных услуг в развитых странах в контексте административных реформ (UDK 323:316.334.3 DOI <https://doi.org/10.24195/2414-9616-2019-4-41-47>) Доктор Академии государственного управления при Президенте Азербайджанской Республики ул. М.Лермонтова, 74, Баку, Азербайджанская Республика.

2. Банковское дело и банковские операции: Учебник / М.С. Марамыгин, Е. Г. Шатковская, М. П. Логинов, Н.Н. Мокеева, Е.Н.Прокофьева, А.Е.Заборовская, А.С. Долгов. Под.ред. М.С.Марамыгина, Е.Г.Шатковской. Российская Федерация, Уральский Государственный экономический университет. – Екатеринбург: Изд-во Урал ун-та, 2021. – 567 стр.

3. Doing Business 2014. Understanding Regulations for Small and Medium-Size Enterprises. - Washington, 2014.

4. Совершенствование государственной системы поддержки МР в Великобритании в 2000 – 2013 гг. Источник: [http:// www.gjaz.ru](http://www.gjaz.ru).

5. Enterprise & Business Support. URL:<http://www.bis.gov.uk/policies/enterprise-and-business-support>.

6. Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
7. ATB «Hamkorbank» ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
8. Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

UDK: 338.012

IJTIMOIIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANISHNING MOHIYATI VA SHARTLARI

СУЩНОСТЬ И ПРЕДПОСЫЛКИ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

ESSENCE AND PREREQUISITES FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIAL ENTREPRENEURSHIP

Won IL Hyoung

National University of Uzbekistan
after Mirzo Ulugbek

Annotation

The article is devoted to the issues of social involvement of business, which allows solving social problems. The main advantages of social business projects and the need for their development are studied. Social services differ from the services provided by enterprises and organizations in other sectors of the non-productive part of the economy, because they are created and distributed in the interests of all members of society.

Key words: social entrepreneurship, business, social impact, social problems, innovations

Мақола бизнесни ижтимоий масалаларга жалб қилишга бағишланган бўлиб, бу ижтимоий муаммоларни ҳал қилишга имкон беради. Ижтимоий бизнес лойиҳаларининг асосий афзалликлари ва уларни ривожлантириш зарурияти ўрганилган. Ижтимоий хизматлар иқтисодиётнинг ноишлаб чиқариш қисмининг бошқа тармоқларидаги корхона ва ташкилотлар томонидан кўрсатиладиган хизматлардан фарқ қилади, чунки улар жамиятнинг барча аъзолари манфаатларини кўзлаб яратилади ва тақсимланади.

Калит сўзлар: ижтимоий тadbirkorlik, бизнес, ижтимоий таъсир, ижтимоий муаммолар, инновациялар

Статья посвящена вопросам социальной привлеченности бизнеса, позволяющего решать социальные проблемы. Обозначены основные плюсы проектов социального бизнеса и необходимость их развития. Социальные услуги отличаются от услуг, которые оказывают предприятия и организации в

**МИРЗО УЛУГБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ
“ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИ” ЖУРНАЛИГА МАҚОЛА
РАСМИЙЛАШТИРИШ ТАЛАБЛАРИ**

Журнал тахририяти 5 бетдан кам бўлмаган ҳажмдаги мақолани қабул қилади. Мақола матни Microsoft Word дастурида 14 шрифт ўлчамида, 1.5 интервалда, юқоридан ва пастдан 2 см, ўнгдан 2 см, чапдан 2.5 см жой қолдирилиб, тахририятга топширилиши лозим. Мақолада чизма, графиклар, жадваллар ва расмлар келтирилиши мумкин. Журнал бир йилда 6 марта нашр этилади.

Мақола таркиби:

- юқорида чап томонда УДК кўрсатилади;
- муаллиф исм-шарифи ўзбек, рус ва инглиз тилларида қисқартирилмаган ҳолда ўнг томонга ёзилади;
- шаҳар ва ташкилот номи;
- мақола номи ўзбек, рус ва инглиз тилларида берилади;
- мақола номидан сўнг ўзбек, рус ва инглиз тилларида аннотация ва калит сўзлар ёзилади.
- матн сўнгида фойдаланилган адабиётлар рўйхати берилади.

**ТРЕБОВАНИЯ ОФОРМЛЕНИЯ СТАТЬИ В ЖУРНАЛ “НОВАЯ ЭКОНОМИКА
УЗБЕКИСТАНА” НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ
МИРЗО УЛУГБЕКА**

Редакция журнала принимает статьи объемом не менее 5 страниц набранных в редакторе Microsoft Word в виде компьютерного файла. Шрифт - Times New Roman – 14, междустрочный интервал 1.5, все поля страницы сверху и снизу – 2 см, справа – 2 см, слева – 2.5 см. В статью можно добавлять графические материалы – рисунки, таблицы и т.д.

Структура статьи:

- в верхнем левом углу указывается УДК;
- имя и фамилия автора без сокращений на узбекском, русском и английском языках по правому краю;
- название города, организации;
- название научной статье на узбекском, русском и английском языках;
- после названия статьи аннотация, ключевые слова на трех языках;
- список источников и литературы размещается в конце текста.